

## MADANIYAT VA SAN'ATNI RIVOJLANTIRISH – JAMIYAT TARAQQIYOTI GAROVIDIR

**Tilewmuratova Mexriban**

O'zbekiston davlat va san'at madaniyat instituti Nukus  
filiali talabasi

**Ilmiy rahar: Aximbetova Gulbaxar Kanatbaevna**

O'zbekiston davlat va san'at madaniyat instituti  
Nukus filiali professori

**Annotaciya:** Ushbu maqolada madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish borasida xorij tajribasini amalda qollash hamda sohada amalga oshirilgan ishlar tahlili milliy madaniyatimizni targ'ib etish va chuning bilan maqolada qoraqalpoq milliy musiqa san'atini o'rganish masalalari va tadqiqot jarayonining tarixiy bosqichlari haqida soz yuritilgan. Qoraqalpoq musiga san'atini ilmiy organishda faol qatnashgan olimlar haqida ma'lumotlar berilgan va ularning asarlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** milliy musiqa, san'at, madaniyat, tadqiqot, tarixiy jarayon, ijodkorlik, rivojlanish.

So'nggi yillarda mamlakatimizda madaniyat, san'at, adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish, dunyo tajribalari asosida zamonaviy madaniyat va san'at sohasiga oid maskanlar ishini takomillashtirish, madaniyat va san'at sohasi xodimlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida hukumatimiz tomonidan qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtdoshlarimizning madaniy va san'at sohasidagi saviyalarini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar namunalaridan bahramand etishlariga sharoit yaratish, o'z mustaqil fikriga ega, yuksak axloq va bilimli iqtidor egalarini iste'dodlarini yanada kengroq xalqqa taqdim etish borasida sezilarli qadamlar qo'yildi. Yangilanayotgan O'zbekistonda olib borilayotgan shiddatli va zalvorli islohotlar umuminsoniy qadriyatlarni davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida milliy qadriyatlarni anglash va qadr topdirish, bir yuz o'ttizdan ortiq millat ahil va bahamjihat xalqni bunyodkorlik g'oyalariga asosan birlashtirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda bu masala nihoyatda muhim va ustuvor hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyov 2017-yil madaniyat va san'at sohasi rahbarlari bilan uchrashuvda shunday ta'kidlagan edi: "Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi.

Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat – bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim". Darhaqiqat insoniyat ma'naviyati va tafakkuri rivojlanishi madaniyat va san'atsiz kechmaydi. Mamlakatimizda ham bu soha turli sabablar bilan yuksalish va deysinish davrini

boshidan o'tkazib keldi. Lekin so'nggi yillarda mazkur sohalarni rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarish yuzasidan hukumatimiz tomonidan tub o'zgarishlar, islohotlar olib borilmoqda.

2018-yil 28-noyabr "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son qarori sohadagi tashkiliy-huquqiy hujjatlarni tartibga solish, madaniyat va aholi dam olish markazlari negizida madaniyat markazlari tashkil etish, mazkur madaniyat markazlari faoliyatini tanqidiy ko'rib chiqish, ulardagi mavjud to'garaklarga yoshlarni jalb etish, xorijiy tillarni o'rganish, bir nechta klub va kurslar tashkil etish va ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilash edi. Eng asosiysi, soha fidoyilari mehnati rag'batlantirish maqsadida "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishonini ta'sis etildi. Shu bilan birga "Xalq cholg'u ijrochilari", Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Milliy raqs ijrochilari", Yunus Rajabiy nomidagi "Yosh maqom ijrochilari" respublika ko'rik-tanlovlarini ta'sis etilidi va o'tkazilib kelinmoqda.

Har bir insonda tafakkur, fikrlash erkin, mustaqil bo'lishi kerak. Ommaviy tarzda bir xil fikrlash halokatli. Bunda ijod ham, rivojlanish ham bo'lmaydi. Ana shu ma'noda o'ylamasdan taqlid qilish milliy qiyofani, o'zlikni unutishga olib keladi. Ayni paytda dunyo adabiyoti, madaniyat va san'atidagi ilg'or, umuminsoniy qadriyatlarga yo'g'rilgan g'oyalarni o'rganish, o'zlashtirish talab etiladi. Har qanday soha boshqalaridan ajralshgan holda yakka o'zi rivojlana olmaydi. Bugun O'zbekistonda milliy madaniyat va san'atni rivojlantirish masalasiga mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralyapti. Negaki, madaniyat va san'at millat taraqqiyoti yo'lidagi nihoyatda ahamiyatli va o'ta nozik soha. Chunki bu soha jamiyatning yuragiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan, tilagiga ko'chadigan tuyg'ularni tarbiyalaydi.

O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at sohasida qator yillar mehnat qilgan ziyolilarni taqdirlash uchun "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishonini ta'sis etildi, ikki yuzdan ortiq madaniyat va san'atga fidoyi mehnat qilgan soha xodimlari ushbu ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar, tarixda ilk marta madaniyat va san'at sohasi faoliyatini qonun himoya qiladigan huquqiy-qonuniy, meyoriy hujjat hisoblanmish "Madaniy faoliyat va madaniy tashkilotlar to'g'risidagi" qonun loyihasini ishlab chiqildi va belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritildi, Senat tomonidan tasdiqlanib, Prezident tomonidan imzolandi.

Hozirgi shiddatli davr san'at va madaniyat sohasi fidoyilari uchun ham imtihon sifatida qator vazifalarni o'rtaga qo'yayotir. Har kuni bir yangilikka, innovatsion va kreativ tashabbusga intilib yashash institut jamoasining, har bir professor-o'qituvchi oldiga zamon talablariga javob beradigan, o'z sohasiga jonkuyar bo'lib xizmat qiladigan professional kadrlarni kadrlarni tayyorlash vazifasini qo'yadi.

Mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir hududda zamonaviy madaniyat maskanlari, amfiteatrlar bunyod etilmoqda, oliy ta'lim dargohlari samarali faoliyat olib bormoqda. Respublikamiz bo'ylab turli madaniyat va san'at festivallarining davomli tashkil etilayotgani bu sohadagi islohotlarning naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rsatib turibdi.

## **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Qanatbayevna, Aximbetova Gulbahar, and Sarsenbaev Baxadir. "ORIENTAL SCHOLARS ON THE ART OF MUSIC." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 3 (2023): 11-14.
2. Qanatbayevna, Aximbetova Gulbahar, and Xudaybergenov Xursandjon. "PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF THE ART OF GIVING." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 3 (2023): 7-10.
3. Qanatbaevna, Akhimbetova Gulbahar. "Perspectives of Development and Educational Significance of Bakhshi Art." *Miasto Przyszłości* 31 (2023): 67-71.
4. Gulbahar, Akhimbetova, and Munteeva Gulnara. "INTERNATIONAL COOPERATION IN THE ART OF BAKHSHI AND DASTAN IN NEW UZBEKISTAN: ACHIEVED RESULTS AND ANALYSIS." *Universum: филология и искусствоведение* 2 (92) (2022): 24-27.
5. Paluaniyazov, Miyrbek. "Musiqā madaniyati darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash mazmuni." *Science and Education* 2.9 (2021): 364-368.
6. Palwaniyazov, Miyrbek. "THE IMPORTANCE OF THE FOLLOWING EXERCISES IN DEVELOPING EFFICIENCY IN THE PERFORMANCE ON NOTES." *Интернаука* 5-2 (2021): 87-89.
7. Paluaniyazov, Miyrbek. "YOSHLARGA MUSIQAVIY TARBIYASIDA PEDAGOGLARNING USULLARI." *Oriental Art and Culture* 3.2 (2022): 883-888.
8. Yuldasheva, Zuxra. "MILLIY VA ZAMONAVIY MUSIQA SANATINING TURFA VA RANG-BARANG USLUBI." *Miasto Przyszłości* 39 (2023): 256-259.
9. Юлдашева, Зухра. "ОСНОВНЫЕ ВЫРАЗИТЕЛЬНЫЕ СРЕДСТВА ТАНЦЕВАЛЬНОГО ИСКУССТВА." *Oriental Art and Culture* 4.3 (2023): 822-827.
10. Меһлимуратов, Т. "BAQSILAR HA'M BAQSISHILIQ MEKTEPLERI." *Экономика и социум* 6-2 (109) (2023): 283-288.
11. Юлдашева, Зухра. "Развитие хореографии как самостоятельного вида искусства." *Science and Education* 3.12 (2022): 916-922.
12. Liza, Aximbetova. "AKTYORLAR ROL USTIDAGI ISH JARAYONI." *Miasto Przyszłości* 40 (2023): 356-359.
13. Aximbetova, Liza. "Ovozdagi qusurlar va ularni yengish yo'llari, ovoz gigienasi va xonanda tartibi." *Science and Education* 4.1 (2023): 416-421.
14. Munteeva, G. "OQUVCHILAR OVOZINI RIVOJLANTIRISH BOYICHA NATIJALARINI ANIQLASH." *Miasto Przyszłości* 40 (2023): 384-386.
15. ZARIMBETOVA, Saltanat, and Gulnara MUNTEEVA. "XONANDANI TARBIYALASH JARAYONIDA O 'QITUVCHI TURLI USULLARDAN FOYDALANISHI." *Journal of Culture and Art* 1.3 (2023): 36-41.
16. Satpay, Uzakov. "The Creator of Folklore is the People." *Miasto Przyszłości* 27 (2022): 197-198.
17. Erejebbaevich, Uzakov Satbay. "MUSIQA VA SANAT MAKTABLARI OQUVCHILARIDA BAXSHICHILIK SANATIGA OQITISH TENDENSIYALARI." *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.3 (2022): 54-57.

18. Otarbaev, Daniyar. "MUSIQA-INSONNING TURMUSH TARZI VA IJTIMOY HAYOTIDA ETADIGAN VOSITALAR." Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры 3.1 Part 2 (2023): 102-104.
19. Оттепбергенова, Гөззал. "МЕТАФОРАНЫҢ КӨРКЕМЛИК ТӘБИЯТЫ." Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 2.4 (2023): 23-25.
20. Uzakov, Satpay. "Pedagogik qobiliyat insonning boshqa sifatleri kabi amaliy ish faoliyatida rivojlanib borishi." Science and Education 3.12 (2022): 667-672.
21. Yerejebbaevich, Uzakov Satbay. "Trends of development of bakhshich tradition in our people (on the example of Karakalpakstan)." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 12.3 (2022): 73-76.
22. Koshkinbaevna, Askarova Ziywar. "THE SIGNIFICANCE OF THE ACTIVITY OF CREATIVE TEAMS AND THEIR ANALYSIS." JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING 2.11 (2023): 92-96.
23. ASKAROVA, ZIUAR, and LOLA MAHAMATDINOVA. "THE ROLE OF TEACHERS IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION OF FUTURE MUSIC TEACHERS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS." INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.8 (2022): 20-23.
24. Қоңыратбаев, Айдос, and Зиуар Асқарова. "ЎРТА ОСИЁ ҲУДУДИДА ИЖРОЧИЛИК САНЪАТИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ." Oriental Art and Culture 3.2 (2022): 777-781.
25. Жарылқағанов, Абдисайд, and Зиуар Асқарова. "ЎЗБЕК ВА ҚОРАҚАЛПОҚ АНЪАНАВИЙ МУСИКА АСБОБЛАРИ." Oriental Art and Culture 3.2 (2022): 741-746.
26. Mirzagul, Sapaeva. "Importance of Professional Skills in Forming Acting Skills." Journal of Innovation, Creativity and Art 2.11 (2023): 87-93.
27. Mirzagul, Sapaeva. "Mashq Bu Bilim Olishning Asosiy Vositasi." Miasto Przyszłości 40 (2023): 443-446.
28. Timurman, Meñlimuratov. "XALÍQ QOSIQLARÍNÍN SAQLANÍP KELIWINDE BAQSÍLARDÍN TUTQAN ORNÍ." Journal of Innovation, Creativity and Art 2.11 (2023): 82-86.
29. Asqarov, Niyazbek. "Dirijyorlik etishda asarning mustaqil ijrosi." Science and Education 3.1 (2022): 996-1000.
30. Asqarova, Z. "QARAQALPAQ XALÍQ AWÍZEKI DÓRETPELERINIŃ IZERTLENIW TARIYXÍ (QAHARMANLÍQ DÁSTANLARÍ)." Journal of Innovation, Creativity and Art 2.11 (2023): 36-41.
31. Embergenova, Gulayda, and Lochinbek Yo‘ldoshev. "ORGANIZATIONAL SEARCH FOR A TEACHER DURING A MODERN MUSIC LESSON." Modern Science and Research 2.12 (2023): 154-159.
32. Aytbaevna, Embergenova Gulayda. "NATIONAL MUSICAL ART AND YOUTH EDUCATION." JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE 3.1 (2024): 38-43.

33. Aytbaevna, Embergenova Gulayda. "THE ROLE OF NATIONAL VALUES IN YOUTH EDUCATION." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 3.1 (2024): 9-13.
34. Munteeva, Gulnara. "THE IMPORTANCE OF IMPROVING VOCAL PERFORMANCE." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.12 (2023): 1-5.
35. Kalkanatov, Asilbek. "PROFESSIONAL QUALIFICATION OF THE MANAGER IN THE CULTURAL FIELD." *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE* 2.9 (2023): 19-23.
36. Kalkanatov, Asilbek. "THE IMPORTANCE OF MANAGING THE PARTICIPATION OF CULTURAL AND ART INSTITUTIONS AND ORGANIZATIONS IN CULTURAL ACTIVITIES." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.9 (2023): 7-10.
37. Abatbaevna, Saparbaeva Gulshira, and Qolqanatov Asilbek Nazarbaevich. "History of the Development of Spiritual and Educational Processes in Karakalpakstan." (2023).
38. ЮЛДАШЕВА, Манзура, and Асылбек КОЛКАНАТОВ. "ПУТИ ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЕ." *Journal of Culture and Art* 1.1 (2023): 16-20.
39. Zokirovich, Muminmirzo Kholmuminov, and Asilbek Kalkanatov Nazarbaevich. "A LOOK AT THE HISTORY OF CLUB ESTABLISHMENTS AND CULTURAL AND EDUCATIONAL PROCESS IN UZBEKISTAN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.2 (2022): 37-44.
40. Юлдашева, Манзура, and Асылбек Колканатов. "OILAVIY DAM OLISH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIIY VA MADANIY MARKETING." *Scientific journal of the Fergana State University* 3 (2022): 6-6.
41. Xolmo‘Minov, Mo‘Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "MUFASSAL MUSHOHADALAR ME‘MORIDAN MUFASSAL MUSHOHADALAR MEROJI." *Oriental Art and Culture* 3.2 (2022): 568-580.
42. Yuldasheva, Manzura, and Asilbek Qolqanatov. "O ‘ZBEKISTONDA MUZEY MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 254-260.
43. Xolmo‘Minov, Mo‘Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA‘RIFIY ISHLAR VA KUTUBXONALAR FAOLIYATI (XX ASR TAJRIBALARIDAN)." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 281-290.
44. Kholmuminov, Muminmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "The Formation of the First Libraries in Uzbekistan and the Role of Increasing the Cultural and Educational Awareness of the Population." *International Journal on Integrated Education* 4.12 (2021): 146-151.
45. Kalkanatov, Asilbek. "IFTIKHORI TIMSOLI TUMOR BRANCH." *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH* 2.11 (2023): 67-69.
46. Nazarbay o‘g‘li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 2 (2023): 15-21.

47. Kalkanatov, Asilbek, Shahabatdin Makhamatdinov, and Islam Urazbaev. "ACTIVITIES OF NEW KARAKALPAKSTAN CULTURAL CENTERS: REFORM AND ANALYSIS." *Art and Design: Social Science* 3.01 (2023): 1-4.
48. Xolmo‘Minov, Mo‘Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "HIMMATNING QIYMATI ILM VA TAFAKKUR XAZINASI." *World of Philology* 2.1 (2023): 59-64.
49. QOLQANATOV, Asilbek. "'O 'ZBEKKONSERT'" DAVLAT MUASSASASI FAOLIYATI: TADQIQOT VA TAHLIL." *TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR* 12 (2023): 8-14.
50. Nazarbai, Kolkanatov Asilbek. "NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.12 (2023): 65-70.
51. Alfiya, Qolqanatova. "Milliy Musiqa San'ati Va Yoshlar Tarbiyasi." *Journal of Creativity in Art and Design* 1.2 (2023): 16-20.
52. QOLQANATOV, Asilbek. "MA'DANIYAT VAZIRLIGI VA MADANIYAT MARKAZLARI: TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARIDAN." *News of UzMU journal* 1.1.1. 1. (2024): 16-20.
53. Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 2 (2023): 15-21.
54. ДАВЛАТОВ, Ойбек. "ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ПЕДАГОГИК МОДЕЛЛАШТИРИШ АСОСИДА ЁШЛАРНИНГ АХБОРОТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ИМКОНИАТЛАРИ." *Journal of Pedagogical and Psychological Studies* 1.1 (2023): 74-79.
55. Абдужаббарова, Мусаллам Лапасовна, Ойбек Ганиевич Давлатов, and Комилжон Аслонович Султанов. "История развития основ государственного управлений Амира Темура.«Темур Тузуклари» как основа государственности на примере." *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN* 2.1 (2021): 12-23.
56. Davlatov, O. G., M. L. Abdujabborova, and N. R. Qurbonova. "Social-humanitarian science— The result of the social needs of a society." *International Journal of Psychosocial Rehabilitation* 24.4 (2020): 2304-2314.
57. Ganievich, D. O. "Development of information security competency in students." *International Journal of Recent Technology and Engineering* 8.2 S10 (2019): 370-373.
58. Давлатов, Ойбек Ганиевич. "МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНИАТЮРА САНЪАТИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ТАРИХИЙ-ИЖТИМОЙ ХУСУСИЯТЛАРИ." *ПЕРЕКРЁСТОК КУЛЬТУРЫ* 1.2 (2019).
59. Давлатов, Ойбек Ганиевич. "ФАКТОРЫ РАДИКАЛИЗАЦИИ ИСЛАМА В УСЛОВИЯХ ИНФОРМАЦИОННОЙ ГЛОБАЛИЗАЦИИ." *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION*. 2018.
60. Davlatov, Ojbek G. "Socio-Pedagogical Features of Protecting Young People from Negative Information." *Eastern European Scientific Journal* 6 (2017).
61. Davlatov, Oybek G. "Protection Mechanisms of Youth from Information Attacks." *Eastern European Scientific Journal* 4 (2017).

62. <https://scholar.google.com/scholar?cluster=1209704741279106205&hl=en&oi=scholar>